


“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirining
Rejim va kadr masalalari bo‘yicha
maslahatchisi



R. X. Mamatkulov

2025-yil “30” -dekabr

**Iqtisodiyot va moliya vazirligi, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida
korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi ijrosi yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilish**

BAYONI № 11

2025-yil 30 - dekabr

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

- R. X. Mamatkulov – Regim va kadr masalalari bo‘yicha maslahatchisi.

Qatnashuvchilar:

- Iqtisodiyot va moliya vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi xodimlari, vazirlik markaziy apparati tegishli tuzilmalari (*Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamentining Kadrlarni saralash boshqarmasi, Ishlar boshqarmasi, Moliya-iqtisod boshqarmasi, Ichki audit xizmati boshqarmasi*) rahbarlari.

Kun tartibi:

**Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi
ijrosi to‘g‘risida.**

(korrupsiyaviy xavf-xatari mavjud bo‘lgan funksiyalarni minimallashtirish hamda ushbu funksiyalarni amalga oshiruvchi lavozimlarda faoliyat olib borayotgan xodimlar bilan o‘tkazilgan profilaktik chora-tadbirlar tog‘risida)

(R. Mamatkulov, O. Samadov, S. Axmedov, O. Jo‘rayev, R. Ibragimov, D. Yuldashxo‘ja, O. Samadov)

Ma‘lumki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-81-son hamda 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-240-son qarorlariga muvofiq, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish, baholash va kamchiliklarni bartaraf

etishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi hamda har bir funktsiya bo'yicha aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning tavsifi va darajasi, ularni bartaraf etish bo'yicha choralarni o'z ichiga oluvchi korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-son qaroriga muvofiq, vazirlik va hududiy bo'linmalarga yuklatilgan **893 ta** funktsiyalar "**E-anticor.uz**" platformasi orqali **baholashdan o'tkazilgan**.

893 ta funktsiyadan **7 ta** funktsiya "**o'rta**" **886 ta** funktsiya "**past**" darajada baholangan.

2025-yil 5-fevralga qadar "Davlat tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash" Uslubiyotining (31.08.2022-yilda 3383-raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) 4-bandiga asosan, vazirlik va uning hududiy bo'linmalariga yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq amalga oshiriladigan **893 ta** funktsiyadan **7 ta** funktsiya "**E-anticor.uz**" elektron platformasida **qayta baholashdan o'tkazildi** va xavflarni minimallashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilab olindi.

7 ta "o'rta" darajadagi funktsiyalarni amalga oshiruvchi **16 ta** lavozimlar ro'yxati shakllantirildi (ilova etiladi).

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish yuzasidan 2025-yil 7-may kuni "**E-anticor.uz**" elektron platformasi orqali Iqtisodiyot va moliya vazirligi, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida **korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi** tasdiqlandi (dastur ilova etiladi).

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida **korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi** ijrosini ta'minlash va korrupsiyaviy xavf-xatarlar "**o'rta**" darajada baholangan funktsiyalarning xavf-xatarlar darajasini minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, "**o'rta**" darajadagi korrupsiyaviy xavf-xatari mavjud bo'lgan funktsiyalar bo'yicha lavozimlar va ushbu lavozimlardagi mas'ul xodimlar ro'yxati shakllantirildi.

Korrupsiyaviy xavf-xatari "**o'rta**" darajadagi funktsiyalarni minimallashtirish maqsadida ushbu funktsiyalarga mas'ul bo'lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarda korrupsiyaga nisbatan muvosiis munosabatni shakllantirish, korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo'lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida **maxsus o'qitish** bo'yicha 2025-yil 10-fevralda (28/3-10-son) **DASTUR** qabul qilindi.

Mazkur dasturda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari, huquqiy asoslar va xalqaro standartlar hamda korrupsiyaviy va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha huquqbuzarliklarning ma'muriy va jinoiy javobgarligi kabi mavzular nazarda tutilgan

bo'lib, korrupsiyaviy xavf-xatari "o'rta" darajadagi funksiyalarga mas'ul bo'lgan xodimlarning **jami 14 soatlik o'quv dasturida** ishtiroki ta'minlandi hamda maxsus o'qitish yakunlari bo'yicha yakuniy test sinovlaridan o'tkazildi.

Bundan tashqari, korrupsiyaviy xavf darajasi "o'rta" deb baholangan **7 ta** funksiyani amalga oshiruvchi **16 ta** lavozimda faoliyat olib borgan **29 nafar** xodim "**Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi**" onlayn platformasining maxsus o'qitish kurslarida o'qitildi.

Ma'lumot uchun: mazkur lavozimda faoliyat olib borgan 29 nafar xodimdan 3 nafari boshqa bo'limga o'tkazilgan va 1 nafari bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan bo'lib, bugungi kunda xavf darajasi "o'rta" deb baholangan lavozimda 25 nafar xodim faoliyat olib bormoqda.

Shuningdek, joriy yilda Iqtisodiyot va moliya vazirligi va vazirlikning hududiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish hamda manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, bartaraf etish va oldini olish, korrupsion huquqbuzarlik bo'yicha javobgarlikning muqarrarligi mavzularida **600 dan** ortiq davra suhbatlari, o'quv seminarlari va boshqa targ'ibot tadbirlari tashkil etildi.

Ushbu tadbirlarda birinchi navbatda korrupsiyaviy xavf-xatarlar "o'rta" darajadagi funksiyalarni bajaruvchi xodimlar ishtiroki ta'minlandi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalarining Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish hamda Buxgalteriya tuzilmalarining **68 nafar** xodimlari ham vazirlikning 2025-yil 10-fevraldagi (28/3-10-son) **DASTURI** asosida **14 soatlik maxsus o'quv** kursida o'qitilib test sinovlaridan o'tkazildi hamda "**Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi**" onlayn platformasining maxsus o'qitish kurslarida ishtiroki ta'minlandi.

Yuqorida qayd qilingan korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini minimallashtirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlardan kelib chiqib, kun tartibidagi masala yuzasidan yig'ilish

Q A R O R Q I L A D I :

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi ijrosi yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.


2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi "o'rta" deb baholangan funksiyalarni amalga oshiruvchi tuzilmalar o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishda tegishli funksiyalarning xavf-xatarlar darajasini yanada minimallashtirish choralarini ko'rsin.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi (O.Samadov) Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti (S.Axmedov) bilan hamkorlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish

dasturida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan nazorat va monitoring ishlarini yanada samarali va sifatli tarzda olib borilishini hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasida belgilangan funksiyalarning korrupsiyaviy xavf-xatarini “past” darajada saqlanishini ta’minlash yuzasidan doimiy profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Tashkiliy ishlar va ijro intizomi boshqarmasi (F. Xamdamov) mazkur yig‘ilish bayoni vazirlik markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hududiy Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

Yig‘ilish kotibi



O. Samadov